

Mavzu : Bog‘ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft
echimini loyixalash.

R e j a:

1. Kirish.
2. Tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash;
3. Loyihsning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish;
4. Loyiha ob‘ekti va predmetini aniqlash;
5. Loyiha usuli yoki uslubiyatini tanlash;
6. Loyiha jarayonini atroflicha yoritish;
7. Loyiha natijalarini tahlil qilish;
8. Xulosa

Kirish.

Muzeylar keng xalq ommasini madaniyat va san'at sohasida mafkuraviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladigan madaniy-oqartuv muassasalaridir. Zamonaviy muzeylar, bu-moddiy va ma'naviy-oqartuv muassasalaridir. Muzey - moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini ko'rgazmaga qo'yadigan va saqlaydigan joy, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi ilmiy izlanish markazidir.

Funksiyalari jihatidan muzeylar quyidagi turlarga bo'linadi:

-Tarixiy, badiiy, o'lkashunoslik, xalq xunarmandchiligi, harbiy tarixiy, qahromonona voqealar, nomdor shaxslar, adabiyot, teatr fidoiylari xotirasi uchun-me'morial muzeylarga, shuningdek fanning alohida bo'limlari bo'yicha tabiat, geologiya, paleantologiya, zoologiya, okeanografiya va boshqa muzeylarga bo'linadi.

Muzeylar kattaligiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- katta muzeylar 300 m³ dan 80 ming m³ gacha;
- o'rta muzeylar – 80 m³ dan 30 ming m³ gacha;
- kichik muzeylar – 30 m³ dan 10 ming m³ gacha;

Muzey binosini loyihalash asosi quyidagilardan iborat:

SHunday tizim yaratish kerakki, bunda xonalarni joylashtirishda ularning o'rtasida bo'lgan aloqalar o'zaro funksional bog'lanishi, tashrif qiluvchilarni muzey eksponatlari bilan tanishtirishda qulaylik yaratish, eksponatlarni o'rnatish, kolleksiyalar to'plash, saralash yo'llarini bilishdan iborat.

Hozirgi zamon muzeyi – funksional bino bo'lib, bunda quyidagi funksiyalar bajariladi:

eksponatlarni saqlash, ko'rgazma, tarbiyaviy klub ta'limi, ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlardir.

Birinchi guruh: - muzeyga kiruvchilarga xizmat qilish xonalari, vestibul garderoibi bilan, axborot markazi, ekskursovodlar xonasi, tibbiy punkt, hojatxona, bufet (restoran yoki kafe) va boshqalar;

Ikkinchi guruh: - madaniy oqartuv bo'limi – ma'ruzalar zali, ko'rgazmalar zali, kutubxonadan iborat;

Uchinchi guruh – doimiy ekspozitsiya bo'limi bo'lib, bular kolleksiyalarning xarakteriga bog'liq bo'ladi;

To'rtinchi guruh – direksiya xonalari, kichik konferensiya zali, administratsiya xonasi, ilmiy ishlar uchun xonalardan iborat. [8]

Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tadbiq qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy ma'rifiy maskan bo'lib, o'zining ekspozitsiya va ko'rgazmalari vositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Respublikamizning turli shaharlarida, jumladan 1996 yil Toshkentda “Temuriylar tarixi davlat muzeyi” 2002 yillarda “Qatog'on qurbonlari xotirasi muzeyi” hamda Termiz shahrida “Arxeologiya muzeyi “ tashkil topdi. “O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ” O'zbekiston davlat o'lkashunoslik muzeyi” va viloyatlardagi qator muzeylar qayta ta'mirlandi. Xozirgi kunda Respublikamizdagi 1200 dan ortiq turli yo'nalishlardagi katta kichik muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda.

“Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi PF-1613 sonli farmoni muzeyshunoslar qo'pdan kutgan hujjat bo'lib, muzeyshunoslik fanining ravnaqiga keng yo'l ochib berdi. Keyingi yillar davomida muzeylar faoliyatini tubdan yangilash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan Respublika “O'zbek muzey” jamg'armasi tomonidan 2002 yil 16-may kuni “XIX asrda o'zbek muzeylari” mavzusida ilmiy ommoviy anjuman o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muzeylarning milliy istiqlol g'oyasiga asoslanib jixozlanishining axvolini o'rganish va bu borada ularga yordam ko'rsatish to'g'risida”gi 2002 yil 11-iyundagi 07- 105-282 – sonli qarori Respublikamizdagi barcha muzeylarning faoliyatini o'rganishga qaratildi. [1] Inson dunyoga kelar ekan, ular tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik

ishlari va ezgu amallar doimo yod etilishi lozim, chunki ezgulik abadiydir.

Zero, shunday ekan, biz ham o'z ajdodlarimiz kabi kelajak avlodga munosib me'ros qoldirishimiz darkor. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek: "Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy kuchli va qudratli xolatda qabul qilib olishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini xis etayotgan bo'lsak, o'g'il va qizlarimiz, kelajak avlod ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini xis etishlari uchun lozim bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirish – bizning fuqarolik burchimizdir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini yaxshilash va tubdan rivojlantirish" to'g'risidagi matbuotda bosilib chiqqan farmoni keng jamoatchilik ichida ko'tarinki ruh va e'tibor bilan qabul qilindi.

Unda Respublikamizning katta va kichik shaharlaridagi mavjud muzeylarda uzoq yillar mobaynida to'plangan va saqlanayotgan, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi noyob muzey eksponatlari xalqimizning buyuk o'tmishdagi mustaqillik va ozodlik yo'lidagi sayi harakatlarini aks ettirishi lozim ekanligi farmonda o'z o'rnini topgan. [1]

Prezidentimizning farmoni ommaning ruhiy-ma'naviy jixatdan rivojlanishiga, yosh avlodni madaniy-ma'rifiy jihatdan yuqori saviyaga chiqarishda muzeylarning rolini yuqori baholadi. Muzey binolari uning vazifasi va maqsadiga muvofiq davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-ma'rifiy tashkilot hisoblanadi. Muzeylar moddiy, ma'rifiy va tarixiy yodgorliklarimiz saqlanadigan joydir.

Diplom loyiha mavzusi: **Bog'ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft echimini loyihalash.**

Muzeyning tuzilishi va badiiy obrazi muzeyga tashrif buyuruvchilarning soni (shahar kattaligi bilan bog'liq holda), o'tkaziladigan tadbirlarning turlari, mavzulari va hajmiga, tashqi muhit faktorlariga, ijtimoiy madaniy, regional, tabiiy-iqlimiy, shahar qurilishi sharoitlari shuningdek binoning sig'imi va uning yalpi o'lchamlariga ta'sir ko'rsatadi.

Tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash:

Bogot tumanida Xotira maydonida qurilishi mo'ljallangan muzey binosi va lanshaft echimini loyihalashtirishning asosi tumanda faoliyat ko'rsatayotgan muzey binosining mavjud emasligidir;

Muzey qurilishini rejalashtirish g'oyasi O'zbekiston hududida tarixiy-madaniy jarayonlarning eng qadimgi davrlardan boshlab, hozirga qadar bo'lgan taraqqiyotini ashyoviy dalillar va tasviriy vositalar orqali namoyish etishga karatilgan. G'oyada o'zbek davlatchiligining shakllanishi tarixi, o'zbek xalqining boy an'analari va madaniyati ifoda etiladi.

Muzeyda tarixiy buyumlarni namoyish qilish bilan kelgusi avlod xotirasida tabiiy asl holatdagi buyumlar va boshqa ashyolarning hotiralarda muhrlab qoldirishda muzey binolarining roli juda kattadir.

SHunday ekan Bog'ot tumanida o'zining ming asrlik tarixiga ega bo'lgan tarixiy inshootlar va ulardan topilgan ashyolar namunalarini namoyish qiladigan tarixiy-etnografik muzeyini loyihalash dolzarb masalalardan biridir.

Muzey deganda biz, keng xalk ommasini san'at va madaniyatga yo'llovchi, ularning ma'naviy boyligini oshiruvchi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muassasa turini anglaymiz. SHu bilan birga muzeylar, ko'rgazma va madaniy yodgorliklarni saklash joyi, ma'naviyat xamda ilmiy tadqiqot ishlarining yuksak darajadagi tarixiy omillarga asoslanib olib borilishi, ilmiy izlanishlar uchun kolleksiyalar tuplamining kengligi, bu esa muzeyning me'moriy rejalashtirish kompozitsion echimlariga ta'sir etadi. Ularning turlari xilma - xildir. Muzeylarni loyixalash, albatta uning ichki mazmunidan kelib chiqqan xolda tanlanadi.

Demak muzey binosi faqatgina ajoyib san'at asari bo'libgina kolmay, shaxarsozlikdagi tutgan o'rni va mavqei bilan ommani ma'naviy jihatdan tarbiyalash ishiga munosib hissa qo'sha oladi.

Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tadbqiq qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy ma'rifiy maskan

boʻlib, oʻzining eqspozitsiya va koʻrgazmalari vositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni bajaradi.

Loyihaning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish;

Bogʻot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft echimini loyihasida tumanning oʻtmishi va tarixini ifoda etuvchi manbaalar, hujjatlar va etnografiyasiga taalluqli buyumlar, arxeologiya yodgorliklari va ulardan topilgan ashyolar, tub aholining asrlar osha saqlanib kelinayotgan madaniyati, urf-odatlar va udumlarini ifodalovchi kompozitsion koʻrgazmalar vositasida tarixni keng xalq ommasiga va kelajak yosh avlodlarga tanishtirishda va mashhur qilishda bebaho ahamiyat kasb etadi.

Loyihaning maqsadi muzey binosini shaharsozlik nuqtai nazardan tuman markazining hozirgi mavjud holatini inobatga olgan holda kulay va zarur boʻlgan qismiga joylashtirish va ishlab chiqiladigan loyixa asosida qad koʻtarishi uchun loyihaviy taklif berishdan iborat.

Loyiha obʻekti va predmetini aniqlash:

Bogʻot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft echimini loyihasini qulay tipologik echimga ega boʻlgan, hayotda yangicha raqobatlasha oladigan zamonaviy jihozlar bilan taʼminlab yosh arxeologlar, tarixchilarimizga, tarix va etnologiya hamda arxeologiyaga tegishli boʻlgan barcha soha vakillariga kulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bogʻot tumani tarixini yanada chuqurlashtirishda, keyingi avlodga qalʼalar tarixi aks etgan suratlar, maket loyihalarini yaratishda arxitektura maktablarini shakllantirish borasida muzey tashkil etish uchun ushbu tuman tanlab olindi.

Loyiha usuli yoki uslubiyanini tanlash;

Diplom loyiha ishi - Bogʻot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft echimini loyihasi boʻlib, u oʻz ichiga amaliy tekshiruvlar, tahlil qilish, loyihalash boʻyicha manbalarni oʻrganish hamda loyihaviy takliflarni ishlab chiqishni oʻz ichiga oladi. Loyihalanayotgan bino tuman markazidagi va chekka qishloqlardagi yoshlarning taʼlim olishini, vataniga va oʻz yurtiga mehr-muhabbat tuygʻulurini uygʻotishni taʼminlash bilan bir qatorda

bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish borasida muzeyda tashkil etiladigan haykaltaroshlik, kitobxonlik va boshqa to'garaklarga jalb etishga xizmat qiladi.

Loyiha jarayonini atroflicha yoritish;

Bog'ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi loyihasida - badiiy-estetik talablar, binoning arxitekturaviy kompozitsion tuzilishiga, uning atrof-muhit va tabiiy landshaft bilan uyg'unligiga qo'yiladigan talablar bo'lib, bino kompozitsion jihatdan markaziy- simmetrik qilib loyihalashtirilgan. Bino kompozitsion jixatidan uch qavatdan iborat bo'lib, erto'la qismida texnik agregatlar havo almashinuvi konditsionerlari, elektrotexnika va isitish tizimi uskunalari uchun xonalar, ustaxonalar va boshqa yordamchi xo'jalik xonalari rejalashtirilgan.

Binoning erto'la qismiga yuklarni tashish uchun maxsus pandus yo'l bo'lib, muzeyga zurur bo'lgan yuklarni va eksponatlarni tashishga mo'ljallangan qilib loyihalangan. Erto'laga kirish qismida yuk tashuvchi lift loyihalangan. Lift yon tomonida qavatlarga chiquvchi zinapoya loyihalangan. Er to'la qismining markazidi keng yo'lak loyihalangan bo'lib u orqali yuklarni va eksponatlarni turli xonalarga olib kirish imkoni mavjud. Er to'la rejasida bino atrofida xonalar guruxi joylashgan bo'lib, barcha xonalarni tabiiy yoritish imkoni mavjud.

Binoning birinchi qavatida, kirish qismi vestibulidan o'ng tomonda kassa, garderoab, ayollar va erkaklar uchun aloxida xojatxona loyihalangan. Asosiy kirish qismi fayedan to'g'rida keng ko'rgazmalar uchun zal loyihalangan bo'lib uning uch tamonini o'rab olgan xolda yo'lak loyihalangan. Yo'lak orqali ma'muriyat va boshqa qo'shimcha xonalarga kirish amalga oshirilgan. Fayedan chap tomonda qavatlarga chiqish zinapoyasi, bufet loyihalangan. Har ikkala tomonda yo'lakga o'tuvchi eshiklar loyihalangan bo'lib muzey binosini aloxida xududga ajratib loyihalangan. Yo'lakning chap tamonida ma'muriyat xonalari: ilmiy xodimlar xonasi, direktor xonasi, fondlarni vaqtinchalik saqlash xonasi, ishchi xodimlar uchun xona va xojatxona ayollar va erkaklar uchun alohida loyihalangan.

Yo‘lakning o‘ng tamonida esa to‘garaklar xonasi, kutubxona, kitob o‘qish zali, qavatlariga chiqish zinapoyasi va uning yon tomonida yuklarni tashish uchun lift loyihalangan.

Ikkinchi va uchinchi qavatlariga ikkita zinapoya orqali chiqish rejalashtirilgan bo‘lib qavatda nazoratchi hamda farroshlar uchun xona loyihalangan. 3-4 qavatlarda ko‘rgazma zallari joylashgan.

Binoning konstruktiv echimi to‘liq karkasdan iborat bo‘lib, 6x6 va 6x3 o‘lchamlardagi modullarga moslangan.

Binoning konstruktiv-me‘moriy echimlari to‘la hal qilingan bo‘lib, ko‘rgazma zallari asosiy zinapoya tomonga ochiq qaratilgan, ushbu echim ko‘rgazma zallarining yanada keng ko‘rinishiga va keluvchilarning ko‘rgazmalarni keng miqiyosda kuzatishlariga imkoniyat yaratadi. Asosiy zinapoyadan qavatlariga chiqish va tushishda yong‘in xavfsizligi va favqulotda xolat paytida evakuatsiya qilish qurilish me‘yorlari va qoidalari talablari darajasida loyihalangan. Bundan tashqari binoning xo‘jalik xonalariga kirib chiqishga va evakuatsiya maqsadlari uchun alohida zinapoya va yuk ko‘tarish lifti rejalashtirilgan.

SHuningdek binoni rejalashtirish echimlarida yuqoridan yoritish qo‘llanilgan. Bu echim bino ichiga yorug‘likning tekis tarqalishiga hamda ko‘rgazma eksponatlariga va quyosh nurlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushmasligini ta‘minlaydi. Binoning tarhi simmetrik bo‘lib, bu echim bino ko‘rinishiga salobat va hashamdorlik baxsh etadi. Binoning zilzilabardoshligi 8 ballga mo‘ljallangan.

Muzeyning bosh reja loyihasida avtomobillar turish joyi, favvora, dam olish maydonchalari, ko‘kalamzor maydonlar loyihalashtirilgan.

T.r	Xonalar nomlanishi	Maydoni (m2)
	Er to‘la qavat rejasi	
1	YUklarni tushurish joyi	
2	Kirish yo‘lagi	

3	Lift	
4	Ertoʻlaga tushish zinapoyasi	
5	Muxandis xonasi	
6	Texniklar uchun ishchi xona	
7	Fondlarning ilmiy arxivi	
8	Anjomlarni saqlash xonasi	
9	Qimmatbaxo va nayob buyumlarni saqlash uchun sef	
10	Rang tasvir asarlari uchun saqlash xonasi	
11	Tarixiy buyumlar uchun saqlash xonasi	
12	Fondlarni saqlash uchun xona	
13	Arxeologik topilmalar va xaykaltaroshlik uchun saqlash xona	
14	Xavoni tozalash uchun konditsioner xonasi	
15	Texnik xodimlar xonasi	
16	YOngʻin havfsizligi uchun xona	
17	Elektroshit xonasi	
18	Elektrik xonasi	
	1-qavat xonalar qaydnomasi	
1	Vestyubl	
2	Koʻrgazma zali	
3	Kassa	
4	Garderob	
5	Erkaklar xojatxonasi	
6	Ayollar xojatxonasi	
7	Toʻgaraklar xonasi	
8	Kutubxona	
9	Kitob oʻqish zali	
10	Zinapoya	
11	Lift shaxtasi	
12	Xojatxona	
13	Restavratsiya xonasi	
14	Fondlarni vaqtinchalik saklash xonasi	
15	Direktor xonasi	
16	Ilmiy xodimlar xonasi	
17	Bufet	

18	Zinapoya	
29	Zinapoya	
30		
31		
	2-3-qavatlar qaydnomasi	
1	Ko'rgazmalar zali	
2	Zinapoya	
3	Lift shaxtasi	
4	Nazoratchi xonasi	
5	Ko'rgazma zali	

Loyiha natijalarini tahlil qilish;

Bog'ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi va lanshaft echimini loyihasida bir qator: shaharsozlik, funksional, badiiy-estetik, konstruktiv, sanitariya- gigiena, yong'in xavfsizligi, zilzilabardoshlilik, iqtisodiy va boshqa talablar qo'yiladi.

Bosh reja bo'yicha muzey binosi atrofi ko'kalamzorlashtirilib, mahalliy iqlim sharoitida o'sadigan manzarali daraxtlar bilan obodonlashtirilgan, muzey binosi mavjud "Xotira hiyoboni" hududida joylashganligi sababli xiyobonning yo'lak va maydonchalari hamda ko'kalamzor maydonlariga uzviy bog'langan va uyg'unlashtirilgan.

Binoning hajmiy kompozitsiyasini tanlashda uning sodda yoki murakkab shaklda ekanligiga, ko'ndalang yuza bo'yicha tarqoq yoki balandlik bo'yicha rivojlanib boruvchi, asosiy yoki bir nechta tarqoq yo'nalishlardagi o'qlarda tashkillashtirilganligi, binoning kattaligi, maydonning o'lchamlari va tuzilish shakliga, binoning tutgan o'rniga va funksiyasiga bog'liq.

Bir turdagi qavatlar odatda, bir xil rejaviy qurilmaga ega bo'ladi. Bunda u umumiy konstruktiv tizim bo'ylama kommunikatsiya tugunlari hamda bo'ylama bog'lanishlar tizimi bilan birgalikda aniqlanadi.

Poydevor yaqinidagi pastki qavatlarda katta o'lchamlardagi materiallarni keltirish bilan bog'liq bo'lgan yuklar, katta xajmdagi jihozlar joylashtiriladigan xonalarning loyihalashtirilishi nazarda tutilgan.

Konstruktiv talablar. Muzey binosi konstruksiyasi to'liq karkas turida bo'lib, tashqi devorlari pishgan g'ishtdan 380 mm. qalinlikda, ichki ajratma devorlari engil oynavand va g'isht to'sinlar qo'llaniladi. Muzey binosi konstruksiyasida qo'llanilgan 6x6 va 3x6 modullar binoning mustahkamligini ta'minlaydi, ayniqsa 3x6 moduli binoning chekka qismlariga joylashtirilgani binonin turg'unligini ta'minlaydi.

Binoning tashqi devorlari pishgan g'isht bilan mahalliy iqlim sharoitlari talablariga javob berishi, qurilishda unchalik murakkab texnika vositalarini talab qilmasligi bilan boshqalardan ustundir.

Muzeyning qavatlar balandligi poldan polgacha 3,9 metrga teng. Tashqi konstruksiyalarning issiqlik o'tkazish ko'rsatkichlari hisob-kitob qilingan holda topilgan. Binoda harorat rejimini saqlash maqsadida issiqlikni kam o'tkazadigan materiallar qo'llanilgan va derazalar sathi kichraytirilib olingan.

Salqin havo hosil qilish maqsadida derazalar eni qisqartirilgan quyosh nurini to'suvchi sayqallangan oynalar ishlatilgan, ichkaridan karniz, shtor va jalyuzlar o'rnatilishi rejalashtirilgan. SHular bilan bir qatorda havoni salqinlatish uchun sun'iy jihozlar sovutgichlar (konditsionerlar) o'rnatish rejalashtirilgan.

Sanitariya-gigiena talablari. Muzey binolarida yoritilganlik va harorat rejimiga rioya qilinishi alohida ahamiyat kasb qiladi. Binoning yoritilishi va almashishi talablari o'z echimini topgan, asosiy yoritish yuqoridan (tomdan) bo'lib, yon tomonlaridagi ensiz derazalar xonalarning kam yoritilgan qismlarini yoritish va shamollatish vazifalarini bajaradi.

YOng'inga xavfsizligi talablari: YOng'inga qarshi talablarga amal qilinishi va evakuatsiya talablarining bajarilishi muzey binosini loyihalashda asosiy vazifalardan biridir. YOng'inga qarshi tadbirlar ham konstruktiv, ham rejalashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan. Bu tadbirlar binoning yong'inga chidamlilik darajasiga qarab belgilangan.

Barcha ko'ndalang va bo'ylama konstruksiyalar tizimi evakuatsiya yo'llari sxemasini tashkil etadi. Binodan chiqish vaqti oddiy holatlarda 10-15 minutni, favqulodda holatlarda 2-3 minutni tashkil etadi.

Muzey binosini loyihalashda yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya kilingan.

Binodan evakuatsion chiqish yo'llari ikkita bo'lib barcha talablarga to'la javob beradi. Zinapoya markaziy qismidan tashqariga chiqish orqali amalga oshiriladi. Zinapoya qiyaligi 26⁰ dan katta bo'lmagan holda loyihalangan. Muzey binosida zinapoya ikkita tomonda loyihalanib ulardan to'g'ri tashqariga chiqish imkoni mavjud.

Zinapoya kataklari ochiq turda tabiiy yortilgan. YOnginga chidamliligi II darajali bo'lgan binolarda zinapoya katagining tepadan yoritilishiga ruxsat etiladi. Iqlimi sovuq bo'lgan SHimoliy regionlarda yopiq, tabiiy yorug'liksiz zinapoya (agar ventilyasiya bilan ta'minlangan bo'lsagina), yumshoq iqlimli regionlarda ochiq zinapoyalar qo'llanilishi mumkin. Barcha xollarda zinapoyalar 1,35 metr balandlikdagi to'siqlar bilan ta'minlangan. Binoning ikkinchi va uchinchi qavatida maydonlar mavjud bo'lib yong'in chiqqan xolatda kishilarni evakuatsiya qilishda qulayliklar yaratishiga xizmat qiladi.

Muzey binosini loyihalashda bir qator **iqtisodiy talablarni** e'tiborga olish zarur. Loyihada yig'ma konstruktiv elementlardan foydalanilgan. Loyiha kurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ) asosida bajarilgan.

Evakuatsion chiqish yo'llari keluvchilar ishlovchi xodimlar (personal) soni va oqimini hisobga olgan holda bino bo'ylab teng taqsimlanadi. Xonalar eshigi vestibulning ichkari tomonidan va tashqariga tomon ochiladi.

Zilzilaga qarshi tadbirlar: Binoning konstruktiv echimlari, devorlar, yuk ko'taruvchi konstruksiyalar turlari va o'lchamlari, poydevorlar bino quriladigan joyning seysmik xususiyatlariga qarab belgilangan. Muzey binosining rejaviy tuzilishida zilzilaga qarshi tadbirlar qo'llanilgan bo'lib, binoda markaziy kompozitsion echimlar qo'llanilgan. Zilzilabardoshligi 8 ballga mo'ljallangan.

Muzey loyihasida me'morchilikning nafaqat ideal estetik ifodalanishida, balki insonning psixofiziologik xis-tuygulariga xam e'tibor qaratilgan. Me'morchilikning barcha rivojlangan davrlardagi formalarining tarkib topish usullari qo'llanilgan. Bunday usullarga: simmetriya va assimmetriya, nyuans va kontrast, ritm, bo'lak, umumiylik orasidagi proporsiya hamda moslashishning ma'lum tiklanishlari misol bo'la oladi.

Loyihalanayotgan bino kompozitsiyasi o'ziga xos simmetrik ko'rinishi hamda salovati bilan shu xududga mosdir.

Har doim ham eng qiziqarli va eng muxtasham binolar, bu jamoat binolari bo'lib kelgan, inson tafakkurining eng oliy darajasidagi xayratlantiruvchi binolar- bu jamoat binolar majmuasidir.

Xalqimizning turmush darajasining oshib borishi esa shahar va shaharchalardagi qurilayotgan turistik markazlar, oliy darajada xizmat ko'rsatuvchi mehmonxona majmualari, yirik ilmiy, madaniy va ma'rifiy markazlar, kinoteatr, konsert va ko'rgazma zallari, sport inshootlari, choyxona, kafe-bar, restoran va boshqa binolar hamda shularga qo'shimcha xolda muzeylar binosining ham kurilishi bilan bog'lidir.

Kundan- kunga rivojlanib borayotgan ilmiy-texnika taraqqiyoti esa, jamoat binolarini arxitekturaviy loyihalashning uslubiy, nazariy va ilmiy asoslarini o'rganmay turib, badiiy kompozitsiyani tushinmasdan hamda yangi kurilish me'yorlarini bilmay turib, loyihalash mumkin emasligini taqozo etadi.

Loyihalanayotgan bitiruv oldi Bog'ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosi o'zining chroyli kompozitsion echimi bilan ushbu xududga mos xolatda loyihalangan bo'lib uning atrofi xorazm iqlim sharoitiga mos bo'lgan mevali va manzarali daraxtlar bilan obodonlashtirilishi rejalashtirilgan. Bu maydon funksional jixatdan bir qancha vazifalarni o'zida mujassam etib unda xotira maydoni yonida motamsaro ona haykali undan tashqari ushbu xududda baxt uyi binosi ham joylashgan. Bu maydon o'z navbatida kelin kuyovlar uchun nikoxdan o'tish va motamsaro ona xaykaliga gullar qo'yish bilan birga muzey binosini ham tamosha qilish imkoniga ham ega bo'lishadilar.

Bu maskan guzal va o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan majmuaga ega bo'ladi. Ushbu maydonda men loyihalagan muzey binosi qad rostlaydi va kelajak avlodga madaniy me'ros ob'ekti bo'lib qoladi.

Xulosa:

Inson faoliyatining qadimiy va nafis sohalaridan biri arxitekturadir. Arxitektura bizga ma'lum "qurilishning yuqori bosqichi", oliysi demakdir. Arxitektura inson faoliyati, maishiy ehtiyojlari, umuman hayoti uchun fazoviy muhit yaratish faoliyatidir. Bu erda fazoviy – er satxi ustidagi binolar nazarda tutiladi. Bunday fazoviy muhit yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. U chegaralovchi, belgilovchi (devor, tosh, to'siq, panjara, dov-daraxt kabi) tuzilishlar yordamida tashkil etiladi.

Arxitekturaning bir-biri bilan chambarchas bog'langan uch jihatlari majud. Bular: konstruksiya, funksiyasi va estetikasidir. Arxitektura asariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- birinchidan arxitektura asari inson hayot faoliyatida qulay bo'lsin, qanday maqsadda qurilgan bo'lsa shu maqsadni to'la ado etsin.

- ikkinchidan o‘z-o‘zini ko‘tara oladigan, tashqi ta’sirlarga chidash beradigan bo‘lsin.

- uchinchidan uning ko‘rinishi ta’sirli, insonni to‘lqinlantiradigan bo‘lishi kerak.

Bog‘ot tumani Xotira maydoni xududiga muzey binosida yuqorida qayd qilingan talablar mavjud bo‘lib, bu echimlar arxitekturaviy, kompozitsion, tipologik va bir qancha bosqichlar asosida loyihalangan. Besh yillik olgan bilimlarimiz samarasi, ilmiy adabiyotlar va jurnallar samarasi shuni ko‘rsatadiki men yaratgan muzey binosining loyihasi qurilish me’yorlari asosida ishlab chiqildi va qurilishga tadbiq qilinishida to‘laqonli o‘z ifodasini topishiga ishonch bildiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 1998 йил 12 январдаги ПФ 1913 сонли фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Музейларни миллий истиқлол ғоясига асосланиб жихозланишининг ахволини ўрганиш ва бу борада уларга ёрдам кўрсатиш тўғрисида”ги 2002 йил 11 июндаги 07/105-282 сонли қарори.
3. “Мозийдан садо” журнали №2 (18) 2003 й.
4. Убайдуллаев Х.М., Жуманиёзов О., Сетмаматов М.Б. “Ўлкашунослик музейи” мавзусидаги битирув лойиҳасини бажариш учун дастур топшириқ ва услубий кўрсатмалар. Т.2003 й.
5. Толипов К., Иногамов Б.И., Сетмаматов М.Б. «Архитектура композиция назарияси» Тошкент 2002 й.
6. И.Е.Рожин, А.И. Урбах, “Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений”, М.Стройиздат 1985
7. Иконников А.В. “Функция, форма, образ в архитектуре” М.Стройиздат 1986.

8. Убайдуллаев Х.М., Абдурахманов Й.И., Хидоятлов Т.А. Жамоат бинолари типологияси 1-қисм.Т. 2000 й.
9. Убайдуллаев Х.М., Абдурахманов Й.И., Сетмаматов М.Б. Жамоат бинолари типологияси 2-қисм.Т. 2000 й.
- 10.Т Қодирова «Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморчилиги » Тошкент 2004 й.
11. Архитектура ва қурилиш журнали 2008й. №4



